

Journal of Social Research in Uzbekistan**THE POLICY OF PERSECUTION OF UZBEK PEASANTS****Abdurasul Boltayev***Associate Professor of Jizzakh State Pedagogical University**Doctor of Historical Sciences (DSc)***Shuxrat Shomurodov***Master's student of the 1st year**Jizzakh, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: peasants, Soviet, collectivization, national statehood, economic system, collectivization.

Received: 03.04.25**Accepted:** 05.04.25**Published:** 07.04.25

Abstract: The article provides information about the policy of persecution of Uzbek peasants and its dreadful consequences. Additionally, the article thoroughly examines the reasons, mechanisms, and consequences of the persecution of peasants, with a focus on the economic and social crisis that emerged as a result of this process. The artificial impoverishment, mass famine, and the collapse of agriculture are analyzed as the dreadful outcomes of the persecution policy.

O'ZBEK DEHQONLARINING QATAG'ON QILINISH SIYOSATI**Abdurasul Boltayev***JDPU Dotsenti Tarix fanlari doktori (DSc)***Shuxrat Shomurodov***I Kurs magistranti**Jizzax, O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so'zlar: dehqonlar, sovet, quloqlashtirish, milliy davlatchilik, iqtisodiy tizim, kollektivlashtirish.

Annotatsiya: Maqolada o'zbek dehqonlarining qatag'on qilinish siyosati va uning mudhish oqibatlari haqida ma'lumotlar o'rin olgan. Bundan tashqari, maqolada dehqonlarning qatag'on qilinishining sabablari, mexanizmlari va oqibatlari batafsil o'rganilib, bu jarayon natijasida yuzaga kelgan iqtisodiy va ijtimoiy inqirozga e'tibor qaratiladi. Sun'iy qashshoqlashuv, ommaviy ocharchilik va qishloq xo'jaligining izdan chiqishi qatag'on siyosatining mudhish natijalari sifatida tahlil qilinadi.

ПОЛИТИКА ПРЕСЛЕДОВАНИЯ УЗБЕКСКИХ КРЕСТЬЯН

Абдурасул Болтаев*Доцент Джиззакский государственный педагогический институт
доктор исторических наук (DSc)***Шухрат Шомуродов***магистрант 1 курса
Джиззак, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: крестьяне, Совет, коллективизация, национальное государство, экономическая система, коллективизация.

Аннотация: В статье приведена информация о политике преследования узбекских крестьян и ее ужасных последствиях. Кроме того, в статье подробно исследуются причины, механизмы и последствия преследования крестьян, с акцентом на экономический и социальный кризис, который возник в результате этого процесса. Искусственное обеднение, массовый голод и развал сельского хозяйства анализируются как ужасные последствия политики преследования.

Kirish: Jahon miqyosida kechayotgan globallashuv jarayonlarida g'oyaviy, mafkuraviy va informatsion kurashning tobora kuchayib, mahalliy lokal tarzdagi tarixiy voqea-hodisalarning xalqaro ahamiyat kasb etayotganligi tarixiy xotiraning jamiyat hayotidagi o'rnini orttirib yubordi. XX asrning oxiridagi siyosiy jarayonlar ilgari atroflicha va xolisona yoritilmagan muammolarni tarix fanining tadqiqot ob'ektiga aylantirdi. Ayniqsa, Sobiq Ittifoqning 1930-1950 yillardagi ichki va tashqi siyosati dunyo miqyosidagi o'zgarishlarga sezilarli ta'sir ko'rsatgani bois, bu davrni ilmiy tadqiq etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Rossiya, AQSh, Kanada, Buyuk Britaniya, Avstraliya va Janubiy Koreyalik tarixchi olimlaridan iborat xalqaro mualliflar jamoasining shu davrda o'tkazilgan siyosiy qatag'onlarga oid "Kreml arxivi"ning katta hajmdagi maxfiy hujjatlarini e'lon qilishi masalaga bo'lgan qiziqishni yanada kuchaytirdi. Bu esa yangi tarixiy faktlar asosida siyosiy qatag'onlarni ob'ektiv o'rganish bo'yicha maxsus tadqiqotlar olib borishni talab etmoqda.

Jahon amaliyotida mustabid sovet tuzumi davrida agrar sohada amalga oshirilgan o'zgarishlar, dehqonlarning ijtimoiy hayotidagi transformatsion jarayonlar, aholining sovet hokimiyati tomonidan olib borilgan iqtisodiy siyosatga munosabati va ijtimoiy harakatlarni tadqiq etish bo'yicha maqsadli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu esa tarixdan saboq chiqarib, bugunga va kelajakka ongli qarashni shakllantirish bilan birga tarix fanida erishilgan natijalarni amaliyotga joriy etishning istiqbolli yo'nalishlarini belgilashga qaratilgan nazariy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkoniyatini yaratadi.

O'zbekistonda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar tufayli milliy davlatchilik an'analari qayta tiklash va milliy o'zlikni anglashga katta e'tibor qaratildi.

Adabiyotlar tahlili: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001 yil 1 maydagi "Qatag'on qurbonlarini yod etish kunini belgilash to'g'risidagi farmoni, 2008 yil 5 maydagi "Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyi faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-861-sonli qarori, 2017 yil 7 fevraldagi 4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni, Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 22 iyuldagi "Vatan va xalq ozodligi yo'lida qurbon bo'lgan fidoyilar xotirasini abadiylashtirish to'g'risida"gi, 2017 yil 22 noyabrdagi 936-son "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi va hududlardagi oliy ta'lim muassasalari tuzilmasida Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeylarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari va mavzuga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Xususan, O'zbek dehqonlarining qatag'on qilinishi asosan XX asrning 20–30-yillarida Sovet Ittifoqi tomonidan amalga oshirilgan kollektivlashtirish siyosati bilan bog'liq. Bu jarayon dehqon xo'jaliklarini zo'rlik bilan jamoalashtirish, boy dehqonlarni "quloqlashtirish" va mahalliy aholini majburan yangi iqtisodiy tizimga moslashishga majburlash bilan kechgan. Ushbu siyosatning og'ir oqibatlari butun O'zbekiston va Markaziy Osiyoga katta zarar yetkazgan.

Sovet rejimi o'z hokimiyatini mustahkamlab olgach, uning xususiyatlari tobora oshkora namoyon bo'la boshladi. Bu holat xususan milliy respublikalardagi rahbar xodimlarga munosabatda yaqqol namoyon bo'ldi. Qaror topgan ma'muriy-buyruqbozlik tizimi va uning rahbar o'zagi hisoblangan Butunittifoq kommunistlar (bolsheviklar) partiyasi — VKP(b) bu paytga kelib "sotsializm asoslari"ni qurishga jiddiy kirishdi hamda jamiyatning barcha sohalarida hukmronlik mavqeyini egalladi.

XX asr 20-yillarining ikkinchi yarmi va 30-yillar boshida O'zbekisto SSRda O'n sakkizlar guruhi (Abdurahim Hojiboyev, Inomjon Xidiraliyev, Muxtorjon Saidjonov va b.), Inog'omovchilik (O'zSSR Maorif xalq komissari Rahim Inog'omov va b.), Qosimovchilik (O'zSSR Oliy sudi raisi Sa'dulla Qosimov va b.), Badriddinovchilik (O'zSSR Oliy sudining prokurori Shamsutdin Badriddinov va b.), "Milliy ittihadchilar" va "Milliy istiqloлчаilar" (Munavvarqori Abdurashidxonov boshchiligidagi 87 nafar kishi), "Narkompros ishi" (O'zSSR Maorif xalq komissari Mannon Ramziy, uning o'rinbosari Botu va b.), "Botir gapchilar" (Qo'qonda Ashurali Zohiriy boshchiligidagi 19 nafar kishi) va boshqa siyosiy ishlar to'qilishi natijasida o'zbek xalqining ko'plab yetuk farzandlari qatag'on qilindi.

Bu davrda kommunistik partiya saflarini "tozalash" kompaniyasi natijasida O'zbekiston Kompartiyasi a'zolarining 25,6 foizi firqadan chiqarildi. Rahbar xodimlarga shubha bilan qarash,

“xalq dushmanlari” va “burjua millatchilari”ni aniqlash va hibsga olish, turli “muxolifat” guruhlarini fosh qilish avjiga chiqdi.

Metodologiya: Qishloq xo‘jaligini kollektivlashtirishning bosh maqsadi shahardagi industrlashni moddiy va ishchi kuchi bilan ta‘minlash, buning uchun dehqonlar mulkini ekpropriatsiya qilish, o‘zlarini quloqqa tortish, sinf sifatida tugatish, davlatning qishloq xo‘jaligi xususiy sektori ustidan nazoratini o‘rnatish asnosida mahsulotni qishloqdan shaharlarga ko‘chirishdan iborat bo‘ldi.

Qishloq xo‘jaligini kollektivlashtirishning ommaviy harakati 1929 yil oxirlaridan boshlandi. Bunga VKP(b) MK bosh kotibi I.V.Stalinning 1929 yil 7 noyabrda "Pravda" gazetasida e‘lon qilgan "Buyuk burilish yili" deb nomlangan maqolasi o‘ziga xos turtki bo‘ldi. Maqola e‘lon qilingach, butun mamlakatda bo‘lgani singari O‘zbekiston hududlarida ham kollektivlashtirish ommaviy harakat tusini oldi. Aslida I.Stalin urg‘u bergan "buyuk burilish yili" iborasida iqtisodiyotni rivojlantirishga aloqador alohida bir xususiyat yo‘q edi. Aksincha, "buyuk burilish yili" iqtisodiyotni rivojlantirish emas, balki uni tamoman vayron qilishga qaratilgan sun‘iy tadbir edi.

O‘zbekistonda kollektivlashtirish, quloq qilish va surgun etish oqibatida siyosiy tanglik, beqarorlik, (rejimga, agrar siyosatga qarshi harakat) avjiga minganidan Markaz tashvishga tushgan. Bunday ahvolga partiya organlari va ularning rahbar xodimlarining olib borayotan noto‘g‘ri faoliyati sababchi bo‘layotganiga urg‘u berishga majbur bo‘lgan. O‘zbekistonda siyosiy muxolifatga mansub bo‘lgan kuchlar ko‘plab rahbarlik tizimlarida o‘rnashib qolgan va partiyaga qarshi, Stalincha rejimga qarshi chiqishlar yuz berishiga zimdan harakat qilganlar. Ular Markaz direktivasini buzish asosida faoliyat ko‘rsatib, qishloq aholisining noroziliklarini avjiga chiqarishga uringanlar.

Qishloq aholisining inqilobiy namoyishlarda ko‘tarib chiqqan shiorlar, talablar haqiqatdan ham qishloqlarimiz aholisi sovetlarning kollektivlashtirish siyosatiga qarshi junbushga kelganidan yorqin nishonadir. Ana shu shiorlarning zahirida qishloq aholisining kuchli, o‘tkir nidosi, butun xalqning dard alamlari, xo‘rlilari, fojialarining in‘ikosi, o‘sha mustabid tuzumga qarshi qaratilgan inqilobiy harakatlar mavjud edi.

Ana shu fojeali jarayon Buxoro, Navoiy, Samarqand, Surxondaryo viloyatlarida nihoyatda og‘ir kechdi. Bu viloyatlardagi o‘zbek, tojik dehqonlari Shimoliy Kavkazga surgun qilindilar.

Shimoliy Kavkaz o‘lkasidagi quloqlar posyolkalariz, mehnat qishloqlarizga joylashtirilgan o‘zbekistonlik dehqonlar benihoya og‘ir turmush, ayanchli hayot kechirdilar. Ularning bir qismi 1932- 1935 yillari va 1937-1938 yillarda qayta qatag‘on qilindi, Ikkinchi jahon urushiga tortildi, mehnat fronti va janglarda ishtirok etdilar. Ammo bu tarixiy jarayon bo‘yicha sovetlar davrida hech qanday tadqiqot ishlari olib borilmadi, bu mavzugak hukmronlik davrida ehtiyoj ham, zaruriyat ham sezilmadi.

Shunday qilib, 1930–1932 yillardagi partiya va sovet hukumatining ma'muriy tazyiqi, oshkora zo'ravonligi, iqtisodiy bosim choralari va siyosiy tadbirlari natijasida O'zbekistonda kollektivlashtirishning yuqori sur'atlari ta'minlandi. 1931 yilda O'zbekistonda kolxozlardagi xo'jaliklar soni 338482 tani yoki jami dehqon xo'jaliklarining 68,2% ni tashkil etdi. 1932 yilda esa kollektivlashtirish 74,9% ni tashkil etdi va xo'jaliklar soni 638131 taga yetdi. Bu ko'rsatgich O'zbekistonda kollektivlashtirish rasman amalga oshirilganligining dalili edi.

Sovet hokimiyatining kollektivlashtirish siyosati dehqonlarning ommaviy noroziligini keltirib chiqardi. 1930 yil yanvardan dehqonlarning noroziligi va qarshiligi ommaviy harakatga aylandi. Norozilikning dastlabki ifodasi ommaviy shikoyat – arznomalar O'zSSR Sovetlari MIQ raisi, Xalq komissarlar Soveti raisi va O'zKP(b) MK kotiblari nomiga yuborilgan. Ularda dehqonlar majburiy tartibdagi kolxoz tuzumidan ommaviy noroziligi bayon etilgan. Yoppasiga kollektivlashtirish e'lon qilingan dastlabki kunlardan oq chorva hayvonlari soni keskin kamaygan. Kolxozga kirishga majbur qilingan aksariyat dehqonlarning xo'jaligidagi hayvonlarini sotishi, so'yishi va boshqa joylarga haydab ketishi ommaviy tus oldi. Bu sovetlarning kolxoz qurilishi siyosatiga dehqonlarning o'ziga xos qarshiligi ifodasi edi. Bozorda qo'ylarning narxi keskin pasayib ketgan.

OGPU ma'lumotlariga ko'ra, dehqonlar kolxozga kirishdan oldin barcha hayvonlarni, hatto otlarini ham sotib faqat sigirlarini qoldirganlar. Turli tashviqot va gaplardan sarosimaga tushgan dehqonlar uy hayvonlari bilan bir qatorda mehnat qurollari, urug'lik donlarni ham sotib yuborishgan. 1930 yilda O'rta Osiyoda jami 336 ommaviy chiqishlar bo'lgan. Shundan, 290 tasida qatnashchilarning soni aniqlangan bo'lib, ular 115950 nafarni tashkil etgan. O'zbekistondagi 235 ommaviy norozilik chiqishlarida 77200 kishi 71 qatnashgan. 1931 yilda ham O'zbekiston hududida dehqonlarning kolxoz qurilishiga qarshi jami 164 ommaviy chiqish sodir etilgan bo'lsa, unda 13980 kishi qatnashgan.

Shu bois, dehqonlarning ommaviy chiqishlari 1930-1931 yillarga qaraganda keskin kamaygan va 1933 yilda ommaviy chiqishlar kuzatilmagan.

Tahlil va natijalar: Umuman olganda, yoppasiga kollektivlashtirish arafasidagi O'zbekistonda qishloq aholisining ijtimoiy tarkibi Sovet Ittifoqining markaziy rayonlaridan farq qilgan. Bolsheviklar o'zbek qishloqlarida asrlar davomida shakllangan ijtimoiy munosabatlarni nazar-pisand qilmasdan, aksincha qishloqqa kommunistik mafkurani, sinflar o'rtasidagi kurash g'oyasini majburiy singdirishga erishdilar. O'zbekiston qishloqlaridagi bolsheviklarning zo'ravonlikka, ma'muriy buyruqbozlikka asoslangan yoppasiga kollektivlashtirish siyosatiga va boshqa agrar tadbirlariga qarshi dehqonlarning norozilik chiqishlari va ommaviy harakatlari yuzaga keldi. Bu harakatlar oshkora - arizalar, yig'ilishlar, namoyishlar, ayollarning norozilik chiqishlarida va yashirin - chorva mollari, ish hayvonlarini sotib yuborish va so'yish, kambag'allarga tarqatish, xorijga haydab ketish shakllarida namoyon bo'ldi.

Respublikamiz va xorijda e'lon qilingan, maxfiylik tamg'asi bekor qilingan hujjat va materiallar to'plamlari, arxiv hujjatlari 1930 yilning birinchi choragida O'zbekiston qishloqlarida kolxoz qurilishi bilan bog'liq o'ta murakkab va keskin siyosiy vaziyat yuzaga kelganligidan guvohlik beradi. OGPUning mutloqo maxfiy ma'lumotnomalari, ma'ruza varaqalari, mahalliy partiya va sovet organlarining shoshilinch telegrammalarida O'zbekiston qishloqlarida ommaviy noroziliklar nafaqat kollektivlashtirish siyosatiga, balki butun Sovet xokimiyatiga qarshi qaratilganligi haqidagi tashvishli xabarlar o'z aksini topgan. Ulardagi o'zbek dehqonlarining kolxoz qurilishiga qarshi norozilik chiqishlarining ommaviy harakatga aylanishi sabablarini ko'rsatuvchi faktik materiallarni tahlil qilish katta ahamiyatga egadir. Bu faktik materiallarga asoslanib dehqonlarning norozilik chiqishlarini passiv va aktiv shaklda bo'lganligini kuzatish mumkin. Dehqonlarning kollektivlashtirish siyosatidan noroziligining dastlabki ifodasi mahalliy sovet organlari zo'ravonlik bilan amalga oshirayotgan qonunbuzarliklar ustidan yuborilgan ommaviy shikoyatlar (murojaatlar) hisoblanadi.

Xulosa: O'zbek dehqonlarining qatag'on qilinishi natijasida O'zbekiston qishloq xo'jaligi tizimi butkul o'zgarib, uzoq yillar davomida Sovet davlatining to'liq nazorati ostida qoldi. Bu jarayon natijasida yuz minglab dehqonlar qashshoqlikka, ocharchilikka va repressiyalarga duch keldi. Ushbu mudhish tarixiy davr bugungi kunda ham o'z ta'sirini yo'qotmagan, chunki o'zbek qishloq xo'jaligi va ijtimoiy tuzilishida kollektivlashtirish va qatag'onlarning oqibatlari sezilarli darajada saqlanib qolgan.

Qishloq aholisining o'ziga to'q dehqonlarini qatag'on qilinishining to'rt bosqichi:

- 1) dehqonlarni quloqqa tortish, saylov huquqidan, molmulkidan, ot-ulovidan, uy-hovlisidan mahrum qilinishi;
- 2) ularning maxsus mehnat posyolkalariga surgun qilinishi, bu joylardagi og'ir mehnat va turmush sharoitlari,
- 3) maxsus mehnat posyolkalaridan to'qima, yasama ayblar bilan qamoq jazosiga hukm etilishi va GULAG lagerlariga etap qilinishi,
- 4) 1937–1938- yillardagi «Katta qirg'in»ning asosiy zarbasi sobiq quloqlarga qaratilgani, qatag'on qilish rejasidagi miqdorni to'ldirish maqsadida shu lagerlardagi mahbuslarning otuvga hukm qilinganligi va ularning jasadlari Butova poligoni, Solovki, Kommunarka, Vagankovka, Sandarmox, Serpantinka, Shahidlar xotirasi majmuasidagi va boshqa qatlgohlardaligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 01.05.2001 yildagi PF-2837-son
2. 2008 yil 5 maydagi "Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyi faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-861-sonli qarori
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 22.11.2017 yildagi 936-son

4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: O'zbekiston, 2016. - 54 b.
5. Brejnev L.I. KPSS Markaziy Komitetining Sovet Ittifoqi Kommunistik partiyasi XXIV s'ezdiga hisobot dokladi, Toshkent -1971 yil, 112-bet
6. КПСС в резолюциях. т-9. М.: Политдат. 1985. – С. 111-129. (СПСУ ин резолютионс. т-9. М.: Политдат. 1985. - С. 111-129)
7. Shamsutdinov R. T. Qishloq fojeasi: jamoalashtirish, quloqlashtirish, surgun. (O'rta Osiyo respublikalari misolida) . – T.: Sharq, 2003. – B. 99
8. Трагедия советской деревни. Коллективизация и раскулачивание. 1927-1939. Документы и материалы. В 5. Т.2. Ноябрь 1929 – декабрь 1930 / Под. ред. В. Данилова, Р. Маннинг, Л. Виолы. – М.: РОССПЕН, 2000. – С. 764
9. Трагедия среднеазиатского киблака: ... Т.1. – Т.: Шарк, 2006. – С.166
10. О'зР ПДА. 58–фонд, 10-ро'йхат, 48-иш, 118-варақ